

## Huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish

Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida 1 kurs talaba-yoshlari o'ttasida turli yet g'oyalardan himoyalashning samarali uslublari va uning zararli oqibatlarini keng yoritish, talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning sodir etilishini oldini olish hamda ma'nnaviy ishlari samaradorligini oshirish maqsadida huquq-targ'ibot organlari bilan hamkorlikda fakultetning YOshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, tarbiyachi pedagog SH.Islamova, tashabbusi bilan "Huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilik, zo'ravonlikka qarshi kurashish" mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbirda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan soha xodimlari Toshkent shahar YUnusobod tumani IIOFMB 1 sonli IIB XPB "Mirzo Ulug'bek" mahalla profilaktika inspektori kapitan Saidaxmedov Sarvar Sunnatovich, I.Komiljonov, Q.Ikromov, U.Tursunovlar so'zga chiqib, bugungi kunga kelib xalqaro terrorizm, narkotrafik va odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarning inson xavfsizligiga xuruj qilayotgani bois, ulardan jabr chekayotganlar, afsuski, ko'pchilikni tashkil etayotganligi, hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatlarning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotganligini aytib o'tdi.



Shuningdek, yoshlarni boshqa davlatlarda kechayotgan noxush voqealar hamda tartibsizliklardan voqif etish emas, balki o'z tinchligimizning qadriga etish, uni har qanday tahididlardan asrab-avaylash ekanligini ta'kidladi. SHuningdek, bugungi kunda aksariyat yoshlari spirtli ichimliklarga ruju qo'yayotganligi va buning natijasida turli jinoyatlar sodir etayotganligi to'g'risida ham talaba-yoshlar tushunchalar berib o'tishdi. Har qanday urush begunoh aholining qiyinchiliklari va iztiroblari bilan tugaydi, lekin bu kabi tartibsizliklarga ayrim kimsalar bundan faqat moddiy manfaat topish uchungina qo'l uradilar. Biz bu tinchlikka osonlik bilan erishganimiz yo'q shuning uchun endi uni qadrlashimiz, asrashimiz kerak va zarurligini, O'zbekistonimizni asrash, uning tinchligini barqarorlashtirish esa yoshlarning qo'lida ekanligi to'g'risida ham tushunchalar berib o'tdi. Tadbir yakunida talabalarni qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan to'liq va aniq javoblar berildi. SHundan so'ng fakultetning yoshlari bilan ishslash bo'yicha dekan o'rinosari H.Eshova barcha tadbir ishtirokchilariga o'z minnatdorchiligini bildirgan holda tadbirni yakunladi.

**ERB fakulteti Yoshlari bilan ishslash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**